

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

MULTIMEDIALAR ,YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O`RGATISH

Turg'unboyeva Gulhayo

Meliboyeva Shohista

JDPU talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktabgach yoshdagi bolarning chet tillarini o`zlashtirishining muhimligini inobatga olgan holda, maktabgacha ta`lim tashkilotlarining ingliz tili mashg`ulotlarini o`yinlar yordamida tashkil etish usullari yoritilgan.

Kalit so`zlar: ingliz tili, MTT, MYB, interfaol o`yinlar,back to back o`yini, taboo words o`yini

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng chet tillarini katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013–2014-o'quv yilidan umumta'lim maktablarida birinchi sinfdan uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning isbotidir. Hozirgi kunda kundalik maktab litsey Buning sababi bor, albatta. Iqtisodiy, fan va madaniy rivojlantirish davlatlarning tillarini o'z jahon ilm- fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishadi. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy tabiiylik, ularda taqlid qilish kuchli, kattalarga nisbatan bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. bu uchun asos'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik berishdan boshlamas zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'r berib qo'yish va yukni so'ndirib qo'yish mumkin.

Ingliz tilini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatishda turli xil qiziqarli o'yinlardan foydalanib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) tarbiyalanuvchilarning diqqatini pastligi buning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Bolalarning diqqatini jalb qiluvchi turli xil interfaol o'yinlar, audio hikoyalar, axborot-kommunikatsiya usullaridan, masalan multimedialar orqali, ertak va hikoyalarni sahnalashtirish usullaridan foydalanish samarali natija beradi. Umuman olganda maktabgacha yoshdagi bolalar ingliz tilini o'rganish davomida ularda kommunikativ kompetensiya rivojlanib boradi, fonetik nuqtai nazardan inglizcha so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyati shakllanib boradi, inglizcha so'z boyligi oshadi.

Quyida keltirilgan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilini o'rganishida, ularni zeriktirmasdan, diqqatini jalb qiluvchi, shuningdek ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam berishi mumkin:

Taboo words o'yini (Ta'qiqlangan so'zlar) - bu qiziqarli o'yin o'quvchilarga sinonim so'zlar va ularning tariflarini qo'llashda yordam beradi. Sinonimlardan foydalanish nutqning ravonligi, so'zlashuvning chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa ingliz tili fanida so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ingliz tilidagi ko'plab bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlar, gap mazmuniga ko'ra foydalaniladi. Aynan ushbu o'yin shu jihatda ehtiyotkor bo'lishga yordam beradi. Bunda guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni o'quvchilar qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirishi uchun tanlaydi. O'qituvchi esa o'quvchilar ortiga o'tib katta qog'ozda yozilgan so'z ushlab turadi. O'rindiqda o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqda o'tirgan a'zosiga o'qituvchi ushlab turgan so'zni aytirish uchun biroz vaqt bo'ladi.

Tennis o'yini - bu o'yinning maqsadi o'quvchilarning tezligini oshirishdir. Bu o'yin zanjir o'yiniga o'xshaydi va tanlangan mavzu doirasida bo'lib o'tadi. Bunda aytilgan so'zning so'nggi harfiga yangi so'z aytishi kerak, masalan mavzu nomi „Animals“ bo'lsa, mavzudan chetlashmagan holda „Tiger“ so'zi bilan boshlansa,

ikkinchi ishtirokchi „rabbit” deb davom ettiradi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'yin davomida to'xtab qolgan o'quvchi 5 daqiqa davomida javob bera olmasa o'yindan chetlashtiriladi va qolgan o'quvchilar bilan davom ettiriladi. O'yinni sinf bilan ya'ni ko'pchilik bilan o'ynash juda qiziqarli va maroqli bo'ladi. Bu o'yinni mavzuni o'zgartirish orqali ham o'ynash mumkin.

Charades o'yini -Pictionary o'yiniga o'xshash lekin asosiy farqi bunda so'z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o'yin o'quvchilar sust, zerikkan va uyquasi kelgan vaqtlarda juda qo'l keladi. Bolalar tanlashi uchun bir necha to'rtburchak qirqilgan qog'ozlarga so'zlar yoziladi. Guruhni ikki jammoaga bo'lib olib, har bir jamoadan bir bola so'z yozilgan qog'ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar uch daqiqa ichida o'sha so'zni topishi kerak boladi. Har bir tog'ri javob uchun bir ball beriladi, 10 ball to'plagan jamoa g'olib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, biz o'rganib chiqqan o'yinlarni bolalarning yosh xususiyatlarini va ularning salohiyatini inobatga olgan holda o'zgartirishimiz mumkindir. Zero, biz ingliz tili mashg'ulotlarini mashg'ulot tarzida emas balki o'yin shakliga keltirsak, kichik yoshdagi bolalarning qiziqishini yanada oshirishimiz mumkin. SHuningdek, ularning aktivlik darajasi ham o'sib boradi.

1.Mamayakubova S, Xushvaqtova S, & Shodmonova , K. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish usullari.

2.Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'vil. - M.: Mozaika-sintez, 2009 y.

3.Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang'ich maktab (<https://monster-evo.ru/uz/kursovaya/skachat-viktorinu-po-skazkam-dlya-nachalnoi-shkoly-viktorina-po-skazkam/>): uslubiy qo'llanma.-M.: Airis-press, 2004.

4.Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.

5.Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. - M.: VAKO, 2008 yil.

6.Ivanova M.V. Bolalar uchun ingliz tili. - M.: AST: Astrel, 2009 y.

7.Trofimova G.S. Chet tillarni o'qitishning pedagogik asoslari (Subaktika didaktikasi). - Izhevsk: Udmurt universiteti nashriyoti, 1999 y.

8.Kozina S.V. Ingliz tilida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'til. - M.: TC Sphere, 2008